

---

KERTOSA DI PAVIA QURBONGOHI TAHLILII YECHIMI

---

Axatova Zohira Aktam qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,

San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti,

San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishi 3 bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Embriachi ustaxonasi muallifligida ishlangan Kertosa di Pavia qurbongohi tavsifi, barpo bo'lish tarixi va ushbu qurbongohda tasvirlangan Iso Masih hayoti haqida so'zlovchi tasvirlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Embriachi Ustaxonasi, Kertosa di Pavia, Qurbongoh, Fil suyagi o'ymakorligi, Iso Masihning hayoti, Iso Masihning sunnat qilinishi, Lazarning tirilishi, Havoriylar Iso Masihni uyg'atishi, Iso Masih tug'ilganligi to'g'risida Chophonlarga vahiy kelishi, Vasvasa, Zaytun bog'idagi azob.

**Annotation:** This article analyzes the description of the Curtosa di Pavia altar made by the Embriachi workshop, the history of its construction, and the images depicting the life of Jesus Christ depicted on this altar.

**Keywords:** Embriaci Workshop, Certosa di Pavia, Altar, Ivory Carving, Life of Jesus Christ, Circumcision of Jesus Christ, Resurrection of Lazarus, Apostles Awakening Jesus Christ, Birth of Jesus Christ to the Shepherds Revelation, Temptation, Torment in the Garden of Olives

**Аннотация:** В данной статье анализируется описание алтаря Куртоза ди Павия, история его строительства, а также изображения, изображающие жизнь Иисуса Христа, изображенные на этом алтаре.

**Ключевые слова:** Мастерская Эмбриачи, Чертоза ди Павия, Алтарь, Резьба по слоновой кости, Жизнь Иисуса Христа, Обрезание Иисуса Христа, Воскресение Лазаря, Пробуждение Иисуса Христа апостолами, Рождение Иисуса Христа среди пастырей, пришествие откровения, Искушение, агония в Елеонском саду.

Uyg'onish davrida deyarli barcha taniqli rassomlarning har biri qurbongohlar ishlaganlar. Chunki uyg'onish darida cherkovlar doimiy qurbongoh ishlashdagi talabi yuqori bo'lgan. Qurbongohlardagi tasvirlar iso Masih hayoti Injildan olingan lavhalar bo'lib, jamoatni hayratga solishga mo'ljallangan edi.

Kertosa di Pavia - Shimoliy Italiyaning Lombardiya shahridagi monastir. Pavia provinsiyasi kichik shaharcha bo'lsada bu yerda qurilgan monastirga shahar nomi berilgan. Ushbu monastir Pavia shahridan 8 km shimolda joylashgan. 1396–1495 yillarda qurilgan. Bu majmua Viskonti oilasi tomomonidan qurilgan. Bugungi kunda uning faqat ba'zi qismlari saqlanib qolgan. Bu

Italiyadagi eng yirik monastirlardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>. 1396 yil 27 avgustda Pavia qal'asining ov bog'i yonidagi hududda shov-shuvli katta yig'in bo'lib o'tadi, bu yig'ilishda Kertosa della Madonna delle Grazie loyihasini taqdim qiladi, Jan Galeazzo Viskonti va uning uch o'g'li, rafiqasi ovoz berishi natijasida loyiha tasdiqlanadi. Bu davrda shaxarda Viskonti oilasining obro'si juda baland edi. Shu sababli bu loihaga hech kim qarshilik qilmaydi, shu o'ying o'zidayoq qurilish boshlanadi.<sup>2</sup> Majmuaning oxirgi binosi bo'lgan cherkov Viskontining oilaviy maqbarasi bo'lishi kerak edi. U ikkita nefli, gotika uslubida ulkan inshoot sifatida ishlangan bo'lib 1465 yilda qurib bitkazilgan. XV asrning o'rtalarida Pavia yaqinida marmar va tosh karerlari yo'qligini hisobga olgan holda, qurilish uchun tosh material kam edi. Kartusiyaliklar, Jon Galeazzo Viskonti va uning vorislari Sforza tomonidan hadya qilingan keng qishloq xo'jaligi yerlaridan katta daromad olishgan va shu daromadni boshqa yirik tosh fabrikalaridan tosh olishga yo'naltirgan edilar, bu fabrikalardan ko'proq Veneranda del Duomo di Milano fabrikasiga buyurtma berishardi. 1473 yilda Del Duomo Fabrikasi va Kertosa rohiblari o'rtasidagi shartnoma fabrikani Kertosa uchun marmar va qurilish toshlarini uzluksiz etkazib berish majburiyatini oldi va 1463 yilga kelib monastr hovli qismi Milano fabrikasidagi toshlari bilan qoplandi. 1385 yilda davlat to'ntarishi natijasida Jon Galeazzo amakisi Bernabo Viskontini taxtdan ag'dardi. Endi sobiq Visconti domenlarining lordlari, shu jumladan Milan. Biroq, otasi Galeazzo II singari, Jon Galeazzo Lombard qirollari va Italiya qirolligining sobiq poytaxti Pavia shahrida istiqomat qilgan va o'z saroyini saqlab qolgan. Jon Galeazzo Shimoliy Italiyada ushbu tarixiy misollarga mos keladigan yangi qirollikni qayta tiklashga intildi. Embriachi triptixi - bu Jon Galeazzo Viskonti tomonidan Baldassare degli Embriachiga Kertosa di Pavianing baland qurbongohi uchun buyurtma qilingan monumental fil suyagi triptixi hisoblanadi.<sup>3</sup> Bu buyurtmani bajarish uchun Milan gersogining moliyaviy ko'magi tufayli 1400 yilda Kertosa a'zosi Baldassarre degli Embriachining haqiqiy durdona asarini yaratish uchun 1000 ta oltin florinni ajratib olishga muvaffaq bo'ldi.<sup>4</sup> Dastlab triptix Kertosa di Pavianing asosiy qurbongohida turgan va u erda saqlanib qolgan. Kertosa di Paviadagi bu asar Embriachi oilasi a'zolarining eng mashhuri ishlaridan biri bo'lgan, shu asarlari sabab butun Evropaga tanilgan.<sup>5</sup> Bu asarning noyobligi Embriachi ustaxonasini mashhur qilgan Fil suyak o'ymakorligidir. Ular bu asarni yaratishda ham ushbu texnologiyani qo'lladilar va asosan Yog'och, suyak va fil suyagini o'yib murakkab kompozitsiyani yaratdilar. Ustaxonaning mohir ustalari Antonio va Jovanni tomonidan ishlangan.<sup>6</sup> Ammo u erda har xil hunarmandlarning qo'llarini ko'rish mumkin, hammasi bir xil mukammallikda ishlanmagan. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak ustaxonadagi ustalarning maxorati bir xil emasligini ko'rsatadi. Asardagi barcha relyeflar gotika davrida ishlangan ikona tasvirlariga tayangan holda ishlangan. Asar panellarining razmeri 128,3 x 153,7 sm bo'lib markaziy qismida Masihning hayoti, chap qismida suvga Cho'mdiruvchi Avliyo Yuhanno va o'ng qismida Xushxabarchi Avliyo Yuhanno epizodlari tasvirlangan.<sup>7</sup> Qurbongoh 3 bo'limdan iborat bo'lib, markaziy qismi kataroq ishlangan va 26 ta paneldan iborat, ikki yon

<sup>1</sup> <https://www.certosadipavia.it/cathedral/>

<sup>2</sup> <https://www.certosadipavia.it/monumento/>

<sup>3</sup> [https://it.wikipedia.org/wiki/Trittico\\_degli\\_Embriachi](https://it.wikipedia.org/wiki/Trittico_degli_Embriachi)

<sup>4</sup> <https://t.me/c/1759901031/1349>

<sup>5</sup> [https://www.treccani.it/enciclopedia/embriaci-o-embriachi\\_%28Enciclopedia-Italiana%29/](https://www.treccani.it/enciclopedia/embriaci-o-embriachi_%28Enciclopedia-Italiana%29/)

<sup>6</sup> <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/oi/authority.20110803095749277>

<sup>7</sup> <https://www.metmuseum.org/art/collection/search/464453?searchField=All&sortBy=Relevance&ft=Baldassare+degli+Embriachi&offset=0&rpp=20&pos=2>

bo'limlari esa 18 ta panel bilan bezatilgan jami 62 paneldan iborat. Ularning barchasi kompozitsiyasida yangi ahd syujetlaridan foydalanilgan.

Markaziy qismdagi Masihning hayotidagi lavhalarga to'xtalib o'tsak u yerda turli mavzular, Iso masihning sunnat qilinishi, Misrga borishi, shayton vasvasaga solishi, Lazarning tirilishi, Bukrini davolashi, Ibodatxonadan savdogarlarni quvishi, oxirgi kechki ovqat, sehrgarlarga sig'inish, senatorlarni qabul qilishi, Iso uxlab yotganda havoriylar uni uyg'atishi, Zaytun bog'idagi azob, Non baliqlarga baraka ato etish, Quddusga borishi, Mariya Magdalenani iymonga chaqirishi, Mariya Magdalena oyoqlarini ko'z yoshlari bilan yuvishi, Ibodatxonada taqdimot, xochga mixlanish va xochni ko'tarish kabi mavzular yoritilgan bo'lib ularning tafsilotiga keladigan bo'lsak Isoning sunnat qilinishi, Rim quroli Avgust butun Rim aholisi ro'yxatdan o'tsin deb farmon chiqaradi. Farmonga ko'ra har kim ro'yxatdan o'tish uchun o'z shaxriga borishi kerak edi. Shu sababli Yusuf o'ziga nikohlangan Maryamni olib Jaliliyaning Nosira shaxriga, Dovudlar shaxri Baytlahimga bordi chunki u Dovud nasabi va xonadonidan edi. Ular musofir bo'lganlari uchun mehmonxonada joy yo'q edi, ular og'ilxonada tunab qolayotgan edilar. Bu paytda Maryamning oy kuni yaqin edi va bir oz vaqt o'tgach uning ko'zi yoridi. Qulayroq joy bo'lmagach Bolani yo'rgaklab oxirga qo'ydi. O'sha yerda cho'ponlar bor edi, ular tunda suruvlarni qo'riqlab uxlamasdan chiqar edilar. Bir kuni to'satdan Xudovandning farishtasi ularning oldida paydo bo'ldi va ilohiy nur ularning ko'zlarini qamashtirdi. Bu holat cho'ponlarni daxshatga soldi, shunda tepadan qo'rqmanglar degan ovoz keldi. Men sizlarga xalqni quvontiradigan xushxabar olib keldim. Bugun Dovudlar shaxrida sizlar uchun xaloskor tug'ildi. U rabbiy Masihdir, mana sizlarga uning belgisi yo'rgaklangan oxirda yotgan chaqaloqni topasizlar deb Xudoga xamdalar aytib samoga ko'tarilib ketishdi. Shunda cho'ponlar keliylar bizga bildirilgan holatni ko'rish uchun Baytlaximga boramiz deya otlandilar. Borsalar haqiqatdan u yerda oxirda bir bola yotar edi. Choponlar hayratda Yusuf va Maryamga chaqaloq haqidagi bashoratni so'zlab berdilar va sakkiz kun o'tgach bola sunnat qilinishi bashorati keldi bashoratga ko'ra uni sunnat qildilar va ismini Iso deb qo'ydilar.<sup>8</sup> Iso Masihni havoriylar tomonidan uyg'atilishi lavhasi bir kuni Iso o'z shogirdlari bilan Jalila dengizi bo'ylab suzib ketayotganida, to'satdan kuchli bo'ron ko'tarilgan Iso Masih u paytda uxlab yotgan bo'ladi, havoriylar bo'ron kuchayganidan qo'rqib talvasaga tushib uni uyg'atadilar. Iso ularga qarab iymoningiz qani deydi va bo'ronga qarata: Jim bo'l! Tinchlan! — deyishi bilan shamol tinib, hamma joy jim-jit bo'lib qolgan<sup>9</sup>, ayni shu holatni ham ijodkorlar mohirlik bilan suyaklarni o'yib qurbongohga kiritganlar. Shayton Iso Masihni vasvasaga solishi, Iso masih suvga cho'mganidan keyin darhol Xudoning ruhi uni Yahudiya sahrosiga boshlab ketadi. U ko'p narsa haqida o'ylab ko'rishi kerak. Iso masih suvga cho'mganida «osmon ochilib ketdi». O'shanda u osmonda nima qilganini va o'rganganini esladi. Chindan ham u ko'p narsa to'g'risida mulohaza qilishi lozim edi. Iso 40 kecha-yu 40 kunduz sahroda qoladi. Shu vaqt mobaynida u hech narsa yemaydi. Oxiri Iso masih juda och qolganida, Shayton Iblis uning yoniga kelib vasvasaga sola boshlaydi: «Agar sen Xudoning o'g'li bo'lsang, mana bu toshlarga buyur, ular nonga aylansin». Ammo Iso, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish niyatida mo'jizalar yaratish qobiliyatidan foydalanish noto'g'ri ekanini biladi. Shuning uchun u Iblisning taklifini rad etadi. Ammo Iblis taslim bo'lmaydi. U boshqacha yo'l tutadi. U Isoni ma'badning eng yuqori joyidan o'zini pastga tashlashga undaydi. Lekin Iso o'zini hammaga ko'z-ko'z qilishni xohlamaydi. Aksincha, muqaddas yozuvlarga ishora qilib, bunday tarzda Xudoni sinash noto'g'ri ekanligini aytadi. Uchinchi marta Iblis qandaydir tarzda Isoga dunyoning barcha shohliklarini hamda ularning ulug'vorligini ko'rsatib,

<sup>8</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=F5icZFCV-r8>

<sup>9</sup> <https://www.jw.org/uz-latn/kutubxona/kitoblar/muqaddas-kitob-xabari/jiso-mojizalar-korsatadi/>

shunday dedi: “Bularning hammasini senga beraman, faqat menga bir marta tiz cho’kib sajda qilsang bas”. Bu safar ham Iso shaytonning taklifini qat’iy rad etib, shunday javob beradi: Yo’qol ko’zimdan, shayton! Allohga sodiq qolish niyatida Iso vasvasaga berilmaydi, chunki u faqat Yahovaga muqaddas xizmatni ado etish kerakligini biladi.<sup>10</sup> Lazarning Tirilishi bu Iso Masihning eng kuchli mo’jizalaridan biri, Lazar Yahudiyalik Marta va Maryamning ukasi, Lazar Iso masihni juda yaxshi ko’rar uning oyog’iga muqaddas moy surtgan kishilardan biri edi. Lazar kasal bo’lib qoladi bu paytda Iso Masih Yahudiyada bo’lmaydi shu sababli Marta va Maryam Iso Masihga xabar yo’llaydilar. Iso Masih bu xabarni eshitgach Yahudiyaga borishni kechiktiradi. Chunki unga Lazar o’lmasligi insonlarga yana bir mo’jiza ko’rsatishligi aytilgan bo’ladi. Biroz vaqt o’tgach Lazarni o’lgani haqida xabar keladi va Iso Masih Yahudiyaga boradi, Marta va Maryam unga yig’laydi sizga xabar jo’natgan edik balki ertachiroq kelganingizda ukam o’lmagan bo’lardi deydi. Iso Masih borganda Lazar ko’milganiga 3 4 kun bo’lgandi. Shunda Iso Masih ukang yashaydi o’lmagan deydi, bu faqat sening xudoga qanday ishonishing va so’rashinga bog’liq deydi, shunda Marta ha men ishonaman chunki sen xudoning o’g’lisan deydi. Iso Masih toshni olib tashlanglar deb buyuradi, tosh olib tashlangandan so’ng yana Lazar chiq deya buyruq beradi va Lazar qabrdan tirilib keladi. Shunda u yerdagi aholi buni Iso Masih qilganini rad qila olmaydi.<sup>11</sup> Zaytun Bog’idagi azob lavhasida esa Yustus Knecht Masihning qayg’u va azoblanishining uchta sababini aytadi: U o’zining oldida uni kutayotgan ko’p va g’ayriinsoniy azoblarni ko’rdi. U bu dahshatli azob-uqubatlarning barchasini intizorlik bilan boshdan kechirganini tasavvur qildi. Masih ularning o’rniga ilohiy adolatni qondirish uchun odamlarning gunohlarini O’z zimmasiga oldi. Endi u qutqarish ishini yakunlash arafasida bo’lganida, dahshatli yovuzlik, jirkanchlik va aybdorlik uning qalbiga kelib, uni nafrat bilan to’ldirdi. U achchiq ehtiros va o’limga qaramay, qancha jonlar abadiy yo’qolishini oldindan bilar edi, chunki ular unga ishonmaydilar va uni sevmaydilar.<sup>12</sup> Luqo xushxabariga ko’ra, oxirgi kechki ovqatdan so’ng darhol Iso ibodat qilish uchun bog’ga chekindi. Har bir xushxabar hikoya tafsilotlari haqida bir oz boshqacha ma’lumotni taklif qiladi. Matto va Mark Xushxabarlari bu ibodat joyini Getsemaniya deb belgilaydi. Isoga uchta havoriy hamrohlik qildi: Butrus, Yuhanno va Yoqub, u hushyor turishni va ibodat qilishni so’radi. U ulardan “bir tosh otish” narida uzoqlashdi, u erda o’zini haddan tashqari qayg’u va iztirobli his qiladi va dedi: “Agar iloji bo’lsa, bu kosa yonimdan o’tib ketsin. Shunga qaramay, men emas, sen xohlagandek bo’lsin. u.” Keyin, bir oz vaqt o’tgach, u: “Agar bu kosa yonidan o’tib ketmasa, lekin men ichishim kerak bo’lsa, Sening xohishing bajo bo’lsin!” U bu ibodatni uch marta o’qidi, har bir namozdan keyin uchta havoriyini tekshirib, uxlab yotganini ko’rdi. U shunday degan: “Ruh irodali, ammo tana zaifdir”. Uni quvvatlantirish uchun osmondan farishta keldi. O’zining azob-uqubatlari ibodat qilganda: “Uning terlari yerga to’kilgan katta qon tomchilari edi”<sup>13</sup> Ibodat qilib bo’lgach shogirdlarining oldiga kelib, ularni uxlab yotgan holda ko’rdi va Butrusdan so’radi: “Men bilan bir soat hushyor turolmaysizmi?”<sup>14</sup> 1673 yilda avliyo Margaret Meri Alakok Iso haqida vahiy ko’rganini

<sup>10</sup> <https://www.jw.org/uz-latn/kutubxona/kitoblar/iso/xizmatning-boshlanishi/Iso-Masihning-Shaytonga-qarshi-turishi/>

<sup>11</sup> <https://uz.wkg-ch.org/maqola/josepf-tkach-tomonidan/Lazar-chiqib-ketdi.html>

<sup>12</sup> Knecht, Fridrix Yustus (1910). "LXIX. Isoning bog’dagi azobi". Muqaddas Kitobga amaliy sharh. B. Herder.

<sup>13</sup> Matto 26:46; Mark 14:41; Yuhanno 18:4: "Uning boshiga nima bo’lishini bilish"

<sup>14</sup> Stravinskas, Piter (1998). Yakshanba kuni tashrif buyuruvchilarning katolik entsiklopediyasi. Huntingdon, Indiana: OSV Press. p. 498. ISBN 978-0-87973-669-9.

aytganida, unga har payshanba oqshomida Getsemaniya bog'ida Isoning azoblari haqida o'ylash uchun bir soat sarflash buyurilganligini aytdi.<sup>15</sup>

Florensiyada Uyg'onish davrining kuchli markazining paydo bo'lishi butun Italiya badiiy madaniyatining yangilanishiga olib keldi. Donatello, Mazacho, Embriachi ustaxonasi vakillari, Lorenzo Giberti va ularning hamkorlari ishi renessans gotika san'ati uchun xos bo'lgan "tafsilotlar realizmi" dan sezilarli darajada farq qiladigan Uyg'onish davri realizmining g'alabasini anglatadi. Embriachi ustaxonasining gotikadan voz kechmagan holatda relyeflarda ikonagrafiyani kirg'izib ishlashi qubongohlarida seziladi. Ularning bu qubongohlaridagi Iso Masih hayoti juda chiroyli va rang barang mavzularga to'xtalishi va judda katta mahorat bilan suyaklarga o'yib tushirishi o'sha davr ijodkorlari naqadar ustalik bilan e'tibor bilan ishlaganini guvohi bo'lamiz. Bu ustozlarning ijodi insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilib, insonni ulug'laydi, uni kundalik hayot darajasidan yuqoriga ko'taradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.certosadipavia.it/cathedral/>
2. <https://www.certosadipavia.it/monumento/>
3. [https://it.wikipedia.org/wiki/Trittico\\_degli\\_Embriachi](https://it.wikipedia.org/wiki/Trittico_degli_Embriachi)
4. <https://t.me/c/1759901031/1349>
5. [https://www.treccani.it/enciclopedia/embriaci-o-embriachi\\_%28Enciclopedia-Italiana%29/](https://www.treccani.it/enciclopedia/embriaci-o-embriachi_%28Enciclopedia-Italiana%29/)
6. <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/oi/authority.20110803095749277>
7. <https://www.metmuseum.org/art/collection/search/464453?searchField=All&sortBy=Relevance&ft=Baldassare+degli+Embriachi&offset=0&rpp=20&pos=2>
8. <https://www.youtube.com/watch?v=F5icZFCV-r8>
9. <https://www.jw.org/uz-latn/kutubxona/kitoblar/muqaddas-kitob-xabari/jiso-mojizalar-korsatadi/>
10. <https://www.jw.org/uz-latn/kutubxona/kitoblar/iso/xizmatning-boshlanishi/Iso-Masihnin-Shaytonga-qarshi-turishi/>
11. <https://uz.wkg-ch.org/maqola/josepf-tkach-tomonidan/Lazar-chiqib-ketdi.html>
12. Knecht, Fridrix Yustus (1910). "LXIX. Isoning bog'dagi azobi". Muqaddas Kitobga amaliy sharh. B. Herder.
13. Matto 26:46; Mark 14:41; Yuhanno 18:4: "Uning boshiga nima bo'lishini bilish"
14. Stravinskas, Piter (1998). Yakshanba kuni tashrif buyuruvchilarning katolik entsiklopediyasi.
15. Huntingdon, Indiana: OSV Press. p. 498. ISBN 978-0-87973-669-9.
15. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agony\\_in\\_the\\_Garden](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agony_in_the_Garden)

<sup>15</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agony\\_in\\_the\\_Garden](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agony_in_the_Garden)